

OLIVER HENRINING “THE GIFT OF THE MAGI” HIKOYASIDA KOGERENSIYAGA ERISHISHNING KOGNITIV ASOSLARI


¹Saidova Muxayyo Umedilloeyvna,
Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
²Sayfiyeva Madina Saydullo qizi,
lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

КОГНИТИВНЫЕ ОСНОВЫ ДОСТИЖЕНИЯ КОГЕРЕНТНОСТИ В РАССКАЗЕ ОЛИВЕР ГЕНРИ “THE GIFT OF THE MAGI”

¹Саидова Мухайё Умедиллоевна,
доцент кафедры английского языкознания,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам
²Сайфиева Мадина Сайдулло кизи,
магистрант 2 курса по специальности «Лингвистика
(английский язык)»

COGNITIVE FOUNDATIONS OF ACHIEVING COHERENCE IN OLIVER HENRY'S SHORT STORY “THE GIFT OF THE MAGI”

¹Saidova Mukhayyo Umedilloeyvna,
Associate Professor of the Department of English Linguistics,
PhD in Philological Sciences
²Sayfiyeva Madina Saydullo qizi,
2nd-year Master's student in Linguistics (English Language)



e-mail:
m.u.saidova@buxdu.uz



[https://orcid.org/
0009-0006-2948-7731](https://orcid.org/0009-0006-2948-7731)

e-mail:
sayfiyevamadina3@gmail.
com

Annotatsiya: Ushbu maqola O. Henri hikoyalarida kogerensiya va kogeziya funksiyalariga kognitiv nuqtayi nazardan yondashadi hamda yozuvchining narrativ strategiyalari o'quvchining kognitiv jarayonlariga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi. O. Henri o'zining kutilmagan syujet burilishlari, murakkab xarakter yaratish uslubi va kinoyaviy yakunlari bilan mashhur bo'lib, ularning barchasi asarlarida yaxlitlik va tuzilma hissini shakllantiradi. Kognitiv nuqtayi nazardan qaralganda, maqola uning hikoyalari qanday qilib mental sxemalar, muammoni hal qilish modellari va o'quvchi kutishlari orqali izchillikni saqlab qolishini o'rganadi.

Kalit so'zlar: kognitiv yondashuv, kogerensiya, kogeziya, narrativ strategiyalar, syujet burilishlari, kinoya, xarakter yaratish, mental sxemalar, matnni tushunish.

Аннотация: В данной статье рассматривается когнитивный подход к функциям когеренции и когезии в рассказах О. Генри, а также анализируется, каким образом его нарративные стратегии воздействуют на когнитивные процессы читателя. О. Генри известен своими неожиданными сюжетными поворотами, сложной разработкой характеров и ироничными концовками, которые создают ощущение целостности и структуры его произведений. С

когнитивной точки зрения, в статье исследуется, как его рассказы сохраняют когерентность с помощью ментальных схем, моделей решения проблем и ожиданий читателя.

Ключевые слова: когнитивный подход, когеренция, когезия, нарративные стратегии, сюжетные повороты, ирония, развитие персонажей, ментальные схемы, понимание нарратива.

Abstract: This paper explores a cognitive perspective on the coherent and cohesive functions within O. Henry's short stories, analyzing how his narrative strategies engage readers' cognitive processes. O. Henry is renowned for his unexpected plot twists, intricate character developments, and ironic endings, all of which create a sense of unity and structure within his works. From a cognitive standpoint, the paper examines how his stories maintain coherence through the use of mental schemas, problem-solving patterns, and reader expectations.

Key words: Cognitive perspective, coherence, cohesion, narrative strategies, plot twists, irony, character development, mental schemas, narrative comprehension.

Kirish. Badiiy diskursning murakkab tabiati, ayniqsa hikoya janrida, kogerensiya va kogeziyani ta'minlovchi mexanizmlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Qisqa hikoyalarning ustasi hisoblangan O.Henri o'z asarlarida til va kognitiv strategiyalarga tayangan holda matnning yaxlitligini ta'minlovchi o'ziga xos narrativ uslubdan foydalanadi. Ushbu tadqiqot O.Henri hikoyalaridagi kogerensiya va kogeziya funksiyalarini kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qiladi.

Tadqiqotning asosiy muammosi O.Henrining narrativ tuzilmalari va lingvistik tanlovlari kognitiv nuqtayi nazardan qanday qilib umumiy kogerensiya va kogeziyani shakllantiradi, degan savolga javob topishdir. An'anaviy lingvistik yondashuvlar grammatik va leksik bog'lanishlar orqali kogeziyani tahlil qilsa, kognitiv lingvistika bu qarashni kengaytirib, mental tasvirlar, konseptual metaforalar va freym semantikani ham inobatga oladi.

Bundan tashqari, biz quyidagi savolga javob topishga harakat qilamiz: "Kognitiv mexanizmlar O. Henrining "The Gift of the Magi" hikoyasida kogerensiya va kogeziya shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?"

Tadqiqotning asosiy maqsadi O.Henrining o'ziga xos badiiy uslubini va o'quvchi tajribasini belgilovchi psixologik jarayonlarni chuqurroq tushuntirishdir.

Asosiy qism. Kognitiv lingvistika tildan insonning umumiy kognitiv qobiliyatlari tizimidagi tarkibiy qism sifatida foydalanadi. U

tilning insonlar dunyoni qanday idrok etishi, konseptuallashtirishi va u bilan o'zaro aloqada bo'lishini qanday aks ettirishiga e'tibor qaratadi. Ushbu sohaning markazida tildagi tushunish, ishlab chiqish va tuzilishni ta'minlovchi kognitiv mexanizmlar joylashgan.

"Kognitiv mexanizmlar bu inson idroki, tafakkuri va til bilan bog'liq faoliyatni ta'minlovchi aqliy jarayonlar va tuzilmalardir. Kognitiv lingvistika doirasida ular insonlarning tajribani konseptuallashtirishi, ma'no yaratishi va til orqali muloqot qilishi jarayonini tushuntiradi. Bu mexanizmlar kategoriyalash, metafora, mental tasvir, konseptual aralashtirish, freym va jismoniy tajribaga asoslangan idrok (embodiment) kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi"¹. Boshqacha aytganda, ular miyamiz dunyoni tushunish va bu tushunchani til orqali ifodalash uchun foydalanadigan "vositalar"idir.

Kognitiv lingvistika doirasidagi asosiy kognitiv mexanizmlar konseptuallashtirish, kategoriyalash, mental makonlar va konseptual integratsiya (blending), jismoniy tajribaga asoslangan idrok (embodiment), freymlash va nuqtayi nazar (perspektiva), obrazli sxemalar, metafora va metonimiyadir.

Kogerensiya (hikoyadagi g'oyalar orasidagi mantiqiy bog'lanishlar) va kogeziya (matn qismlarini bog'lovchi grammatik va leksik vositalar) nuqtayi nazaridan O. Henri matnni yaxlit va mazmunli ko'rinishga keltirish uchun so'z va iboralardan mohirona foydalanadi.

¹ Evans, V., & Green, M. (2006). Cognitive Linguistics: An Introduction. Edinburgh University Press.

Kogerensiya taqdim etilgan g'oyalar o'rtasidagi ichki mantiqiy aloqani bildiradi. Kognitiv yondashuv esa bu jarayonda o'quvchining ongida hikoyaning turli qismlarini narrativ oqim asosida bir-biriga qanday bog'lashini tushuntiradi. Aynan shu yerda ba'zi bog'lovchi so'zlar o'quvchining fikr yuritishini yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, O.Henrining "The Gift of the Magi" hikoyasida "however" so'zi Dellaning harakatlari va yakuniy natija o'rtasidagi ziddikni ifodalash uchun samarali qo'llanilgan. Bu so'z o'quvchining kutishlarini yo'naltirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Quyidagi parcha bunga isbot bo'la oladi: "She had put aside her pride, however, to buy a gift that would be worthy of her husband's love"². Bu holatda "however" so'zi hikoyani Dellaning oldingi fikr va harakatlaridan uning eri haqidagi muhabbatini anglashiga zid tarzidagi yangi holatga o'tkazish uchun xizmat qiladi. "However" keltirgan ziddik o'quvchiga nuqtayi nazardagi bu o'zgarishni ko'rsatadi va shu orqali kognitiv jarayonda kogerensiyani (izchillikni) saqlaydi. O'quvchi Dellaning harakati (sochini sotishi) mehr bilan sovg'a tayyorlash niyatida amalga oshirilganini tushunadi, garchi sovg'alar almashinuvi natijasi kinoyali (ironiya) bo'lsa ham.

Kogeziya esa hikoyaning yaxlitligini ta'minlaydigan texnik, grammatik bog'lanishlarni anglatadi. "But", "however", "likely" kabi bog'lovchi vositalar matnning turli qismlari o'rtasida aniq munosabatlarni yaratib, o'quvchining hikoya mazmunini to'g'ri talqin etishiga yordam berish orqali kogeziyaning saqlanishiga hissa qo'shadi.

"Til tahlilida hanuzgacha saqlanib kelayotgan keng tarqalgan xatolardan biri bu biz til orqali yetkazilgan xabarni faqat undagi so'zlar va gap tuzilmasiga asoslanib tushunamiz, degan noto'g'ri tasavvurdir. Albatta, biz ma'noni anglash jarayonida gapning sintaktik tuzilishiga va unda ishlatilgan leksik birliklarga tayanamiz. Ammo faqat shu so'zma-so'z ma'lumotlarga asoslanamiz, deb o'ylash xato bo'ladi. Biz ba'zan yozuvchi grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan

gapni yozganini tan olamiz, lekin baribir uni to'liq tushunmadik deymiz, chunki bu gapning haqiqiy ma'nosini anglash uchun qo'shimcha kontekstual ma'lumot kerak bo'ladi"³. O.Henrining "The Gift of the Magi" hikoyasidan misol: "She stood still and cried a little while. Then she did up her hair again nervously and quickly. Once she faltered for a minute and stood still while a tear or two splashed on the worn red carpet."⁴ Bu parcha grammatik jihatdan mukammal. Har bir so'z o'z o'rnida ishlatilgan. Ammo agar biz faqat so'zlarning bevosita ma'nosiga qarash, u faqatgina "u yig'ladi, sochlarini yig'di, ko'z yoshi gilamga tomidi" degan holatni bildiradi. Lekin asl ma'no bu ayol (Della)ning ruhiy iztirobi, uning sevgi yo'lida qilayotgan fidokorligi va ichki kurashini anglatadi. Bu holatni tushunish uchun kontekst, ya'ni u o'zining eng qimmat sochlarini eri Jim uchun sovg'a olish maqsadida sotgani haqida bilish zarur. Shundagina bu oddiy jumlar chuqur hissiy ma'noga ega bo'ladi.

Tilni tushunish nafaqat so'z va grammatik tuzilish orqali, balki madaniy, emotsional va kontekstual ma'lumot orqali amalga oshadi. O.Henrining hikoyalari aynan shu so'z ortidagi ma'noni his qilish san'atidir. O.Henri ushbu sahnada o'quvchining kognitiv jarayonini, ya'ni fikrlash va his qilish yo'lini nozik tarzda boshqaradi. Grammatik jihatdan oddiy, lekin kontekstual jihatdan chuqur bo'lgan jumlar orqali o'quvchini Della qalbiga kirgizadi. Shuningdek, bu parchada "She stood still and cried" kabi iboralar o'quvchi ongida "emotsional zarba" freymni ishga tushiradi. O'quvchi shunchaki harakatni emas, balki ichki iztirob, "yo'qotish va sevgi o'rtasidagi ziddiyat"ni tasavvur qiladi (Mental frame). "Her hair", "a tear or two splashed" kabi detallar o'quvchini Della tanaviy tajribasiga yaqinlashtiradi, ko'z yoshlari, harakatdagi titroq, bular tanaviy sezimlar orqali hissiy idrokni kuchaytiradi. O'quvchi bu holatni "ko'rmaydi", balki his qiladi (Embodied experience). Matnning bu nuqtasida o'quvchi "nega u yig'layapti?" degan savol bilan ichki tafakkur jarayoniga kiradi. Keyinroq biladiki, u

² O. Henry. (2005). "The Gift of the Magi and other stories" ("The Gift of the Magi")

³ Gillian Brown and George Yule. Discourse analysis. 1983. Page 223.

⁴ O. Henry. (2005). "The Gift of the Magi and other stories" ("The Gift of the Magi")

sevgi yo'lida eng aziz narsa ya'ni sochini sotgan. Shu tarzda o'quvchi "tashqi harakatdan ichki sababga" o'tadi, bu kognitiv burilishdir (Cognitive shift).

Adresat bu sahnani tushunish uchun so'zma-so'z ma'no bilan cheklanmaydi, u o'zida mavjud "sevgi va fidoyilik" haqidagi bilimlarga tayanadi. Shunda matnning chin mohiyati ya'ni haqiqiy sevgi sovg'adan qimmat degan g'oya anglashiladi (Inference). Buning uchun grammatika yoki so'z boyligi yetarli emas, o'quvchi kognitiv bilimlar bazasi, ya'ni hayotiy tajriba, hissiy idrok va madaniy kontekstdan foydalanadi. O.Henri o'quvchini sokin, lekin kuchli emotsional tafakkurga olib kiradi, bu esa kogeziya (bog'liqlik)ni sezgi va fikr orqali amalga oshirishning mukammal namunasi hisoblanadi.

Xulosa. Kogerensiya ham kognitiv, ham kommunikativ jarayonlarda markaziy rol o'ynaydi. Kognitiv kogerensiya nazariyasi insonning e'tiqodlar, idroklar va munosabatlarda izchillikni saqlashga bo'lgan ichki intilishini ta'kidlaydi, bu esa shaxsga murakkab ijtimoiy va psixologik muhitda yo'l topishga yordam beradi. Ushbu izchillikka intilish nutq jarayonida ham davom etadi, bunda insonlar mantiqiy va bog'liq muloqotni saqlashga harakat qiladi, hatto mavzuga qayta murojaat qilganlarida ham. Shunga qaramay, nutqdagi kogerensiyada deklarativ xotiraning roli ko'p hollarda e'tibordan chetda qolgan, ko'proq global kogerensiyaga ta'sir etuvchi kognitiv buzilishlarga urg'u berilgan. Oxir-oqibat, kogerensiya, u kognitsiya, muloqot yoki ijtimoiy o'zaro ta'sirda bo'lishidan qat'i

nazar, psixologik muvozanat va samarali kommunikatsiyani ta'minlovchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). Cohesion in English. London: Longman.
2. Brown, G., & Yule, G. (1983). Discourse Analysis. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Cook, G. (1994). Discourse and Literature: The Interplay of Form and Mind. Oxford: Oxford University Press.
4. Tanskanen, S. K. (2006). Collaborative Dialogue in Literary Discourse. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
5. Castro, C. D. (2004). Cohesive devices in second language writing.
6. Palmer, B. C. (1999). Developing cultural literacy through the writing process.
7. O. Henry. (2005). The Gift of the Magi and other stories.
8. Charles Fillmore (1982). Frame Semantics. Linguistics in the Morning Calm. Seoul: Hanshin.
9. Miriam R. L. Petruck (1996). Frame Semantics. In Handbook of Pragmatics.

